



PARAZIT HAYVONLARNING ORGANIZMGA YUQISH SABABLARI UNI
DAVOLASH PRAFILAKTIKASI

ПРИЧИНЫ ЗАРАЖЕНИЯ ОРГАНИЗМА ПАЗАРИТИЧЕСКИМИ
ЖИВОТНЫМИ ЛЕЧЕНИЕ ПРОФИЛАКТИКА

CAUSES OF INFECTION OF THE BODY WITH PARASITIC ANIMALS
TREATMENT PREVENTION

Tilavoldiyeva D. X

“Tibbiy biologiya va kimyo” kafedrasi assistenti

Dehqonova M. M

Turg'unova M. M

Pediatric yo'nalishi 1-kurs talabalari “Central Asian Medical University” Tibbiyot universiteti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada parazitlar organizmlarga qanday yuqishi, ifloslangan oziq-ovqat yoki suv, xasharotlar chaqishi yoki infeksiyalangan shaxslar bilan bevosita aloqa qilish kabi turli vositalar orqali yuqtirishi mumkinligi haqida so'z boradi. INFEKTSION oldini olish uchun yaxshi gigiena qoidalariga rioya qilish haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Parazitar infeksiyalarni davolash odatda o'ziga xos parazitga asoslangan tibbiyot mutaxassislari tomonidan tayinlangan dori-darmonlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: tuproq, o'simlik, yorug'lik, issiqlik, parazitlar, parazit-xo'jayin, to'garak og'izlilar, so'rg'ichlilar sinfi, tasmason.

Аннотация: В этой статье рассматривается, как паразиты могут передаваться организмам через различные средства, такие как зараженная пища или вода, укусы насекомых или прямой контакт с инфицированными людьми. Дается обзор соблюдения правил гигиены для предотвращения заражения. Лечение паразитарных инфекций обычно включает лекарства, прописанные медицинскими работниками на основе конкретного паразита.

Ключевые слова: почва, растение, свет, тепло, паразиты, паразит-хозяин, круглоротые, класс присосок, ленточные.

Abstrakt: This article examines how parasites can be transmitted to organisms through various means, such as contaminated food or water, insect bites, or direct contact with infected people. An overview of hygiene practices to prevent infection is given. Treatment of parasitic infections usually involves medications prescribed by medical professionals based on a specific parasite.

Key words: soil, plant, light, heat, parasites, host parasite, round-mouthed, sucker class, ribbon.

KIRISH

Parazitizm (yun. Parasitos-tekinxo'r, hamtovoq, parazit va ismos-kasallik holati)- (biologiyada) oziqlanish orqali bog'langan va o'zaro moddalar almashinuviga asoslangan,



genetik jihatdan turlicha bo'lgan organizmlarning tarixiy shakllangan assotsiatsiyasi. Parazitizmda bir organizm (parazit) ikkinchi organizm (xo'jayin)dan yashash muhiti va oziq, manbai sifatida foydalanadi: ikkala organizm ham o'zaro antagonistik munosabatda bo'ladi. Bundan tashqari, parazit-xo'jayin munosabatlari organizmda immunobiologik reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Hayvonot dunyosining deyarli barcha tiplarida parazitlik bilan hayot kechiruvchi turlar mavjud. Ba'zi bir sinflar (so'rg'ichlilar, tasmaimonlar), hatto tiplar (sporalilar, mikrosporidlar, tikanboshlilar) faqat parazit turlarni uz ichiga oladi. Bo'g'imoyoqlilar tipida parazitlar hasharotlar va o'rgimchaksimonlar sinfi vakillari orasida ko'p uchraydi. Umuman Yer yuzida mavjud bo'lgan hayvonlar turining 60-65 mingi (4-5%) parazit hayot kechiradi.

Adabiyotlar tahlili. R.Leykartning fikricha parazitlar keng va haqiqiy ma'noda shunday organizmlarki, ularga boshqa bir organizmdan o'ziga oziqa va yashash makoni topgan barcha mavjudotlarni kiritish mumkin⁷. Parazitlarga ichki gijjalar, ularga o'xshash fo'rmalar, boshqa erkin yashaydiganlarga o'xshash turlar ham kiradi deydi. Shunga ko'ra parazitni asosiy belgisi uni oziqlanish turida, barcha boshqa tirik organizmlar hisobiga yashovchi mavjudotlarni parazit organizmlar deb tushunadi. K.I.Skryabin ta'rificha parazitizm bu organizmlar orasidagi shunday biologik o'zaro munosabatki, ulardan biri - parazit vaqtinchalik yoki doimiy - ikkinchisini tana ustida yoki to'qimalari orasida yashab, uni hisobiga oziqlanadi, lekin o'z navbatida unga hech qanday xizmat qilmaydi. Bunda faqat oziqlanish va xo'jayindan faqat bir tomonlama foydalanish ko'zda tutiladi. V.A.Dogel fikriga ko'ra hamma yuqorida qayd qilingan parazitolog olimlarning fikrlarini umumlashtirib, parazitizm to'g'risida shunday fikr bildiradi.

Parazitlar shunday organizmlarki, qaysiki ular boshqa tirik organizmlardan oziqa manbai, yashash muhiti sifatida foydalanib qolmasdan, balki ularga qisman yoki to'liq o'zini tashqi muhit bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarini boshqarish vazifasini ham o'z xo'jayinlariga yuklab qo'yadilar. Bundan parazitni yashash muhitini ikki taraflama xo'jayin organizmi parazit uchun birlamchi, atrof muhit ikkilamchi muhit bo'lib hisoblanadi. Shunday qilib xo'jayin organizmi parazit va atrof muhit o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi. Parazitizm 21-asrga kelib mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. Bu mikroskopning takomillashuvi, ko'plab mikroskopik parazitlarning kashf etilishi va parazitlarning hayot sikllari o'rganilishi bilan bog'liq. O'rta Osiyoda parazitologiyaga oid ma'lumotlar 19-asrning 2-yarmida Turkiston o'lkasi bo'ylab sayoxat qilgan rus naturalist olimi A. Parazitizm Fedchenko asarlarida uchraydi. U Buxoro, Samarqand va Toshkentda bo'lib, har xil hayvonlarning parazit chuvalchanglarini yig'adi. Yig'ilgan materiallarni Daniya va Germaniya mutaxassislari yordamida ishlash natijasida, ularning 24 turga mansub ekanligi aniklanadi. 20-asr boshlarida O'zbekistonda Parazitizm sohasida tadqiqotlarning rivojlanishi rus olimlari K. I. Skryabin, Ye. N. Pavlovskiy, V. A. Dogel, N. V. Badanin, L. M. Isayev va boshqalarning nomi bilan bog'liq⁸.

Asosiy qism. Parazitlarni vaqtinchalik yoki doimiy ular hisobiga oziqlanadigan organizmlarni parazitlarning xo'jayinlari deyiladi. Parazitlar xo'jayinlarining (odam,

⁷ Georgi, J.R., & Maizels, R.M. (2017). Exploring Parasite Genomes: Parasitology Meets Genomics. Cambridge University Press

⁸ Bowman, D.D., & Georgi, J.R. (2013). Georgis' Parasitology for Veterinarians. Elsevier Health Sciences



hayvon, o'simliklar) barcha organ va to'qimalarini zararlaydi. M: ichakda askaridalar, bolalar gijjasi, tasmaimon chuvalchanglar, lyambliya, amyoba, trixomonadalar; o't yo'llarida lyambliya, jigar va mushuk ikki so'rg'ichlilari; teri ostida rishta; to'qimalarda trixinella lichinkalari; qon tomirlarida shistosomalar; o'pkada toksokara, askarida va boshqalar uchraydi.

Parazitlar tabiatda tur sifatida saqlanib qolishi uchun, ko'payish jarayonida xo'jayin organizmidan chiqib, tashqi muhitga, boshqa xo'jayinlarga o'tadi. Parazitlarni bitta xo'jayindan ikkinchi bir xo'jayinga, xo'jayinlaridan tashqi muhitga o'tish mexanizmlari va taxminiy xo'jayinlar bo'lishi mumkin bo'lgan organizmlar doirasini kengligi, albatta ularni tabiatda keng tarqlishini ta'minlaydi. Parazitlarni vaqtincha yoki doimiy o'z hisobiga oziqlantiradigan organizmlar parazitning xo'jayinlari deyiladi. Parazit xo'jayinlari bir necha xil bo'ladi.

Turli-tuman parazitlar o'zlarini rivojlanishida bitta, ikkita va undan ko'proq xo'jayinlarda yashashlari mumkin. Shuning uchun parazitlarga xos oxirgi (definitiv, asosiy), oraliq, qo'shimcha, rezervuar xo'jayinlar mavjud. Xo'jayinlarning bu darajada xilma-xil bo'lishiga sabab, ular yordamida parazitlar tabiatda keng tarqaladi va tur sifatida saqlanib qoladi. Parazitning jinsiy voyaga yetgan davri yashab, uning jinsiy yo'l bilan ko'payadigan davri kechadigan hayvon organizmi asosiy xo'jayin hisoblanadi. Parazit-xo'jayin bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan biologik sistema bo'lib, bunday munosabatdan faqat bir tomon, ya'ni parazit foyda ko'radi. Parazit xo'jayinga zararli ta'sir ko'rsatib, kasallik keltirib chiqaradi. Parazitni bu xususiyatiga parazit patogenligi deyiladi.

Ko'pchilik parazitlar ayniqsa gelmintlar rivojlanish sikli xo'jayin almashtirish yo'li bilan boradi. Gelmintlarni rivojlansh siklida albatta oraliq xo'jayin ishtirok etsa bularni biogelmintlar (mushuk ikki so'rg'ichlisi, qora mol tasmaimon chuvalchangi, keng tasmaimon chuvalchang va boshqalar) keltirib chiqaradigan kasalliklarini biogelmintozlar deyiladi. Gelmintlarni rivojlanish siklida oraliq xo'jayinlar ishtirok etmasa geogelmintlar (askarida, qilbosh nematoda va boshqalar), keltirib chiqaradigan kasalliklarini esa geogelmintozlar deyiladi. Ayrim gelmintlar bilan to'g'ridan-tog'ri zararlanish mumkin (bolalar gijjasi), bunday gelmintlarni kontakt gelmintlar, ularni keltirib chiqaradigan kasalliklarini, kontakt gelmintozlar deb ataladi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, parazitlar xo'jayinining turli to'qima va organlarida yashaydi. Shunga ko'ra, ayrim jinsli parazitlar hamma vaqt ham bir-biri bilan jinsiy qo'shilish imkoniyatiga ega emas. Bu holat ularning nasl qoldirishini qiyinlashtiradi va tur sifatida yashashini cheklaydi. Sunday noqulaylikni evolutsion taraqqiyotning o'zi bartaraf etgan, ya'ni parazitlar ayrim jinslilikdan germafroditlikka o'tgan. Germafrodit organizmlarda esa avlod qoldirish ancha kafolatlangan bo'ladi. Ko'pchilik parazitlar nihoyatda serpusht bo'lib, juda ko'p miqdorda tuxum qo'yadi. Lekin bu xususiyat quyidagi ikki holat bilan bog'liq. Birinchidan, parazitlar cheklanmagan oziq moddasi bo'lganligi tufayli, uni cheklanmagan miqdorda iste'mol qiladi. Bu esa ularning jinsiy organlari sistemasini yanada rivojlanishi va faoliyatining kuchayishiga olib keladi. Ikkinchidan, ko'p nasl qoldirgan parazitlarga tabiiy tanlanish davomida tur sifatida saqlanib qolgan. Ko'p nasl qoldirish, ayniqsa, parazit chuvalchanglarda uchraydi. Nematodalarning erkin yashovchi vakillari odatda o'n va yuzlab tuxum qo'yadi. Lekin parazit turlari nihoyatda



serpusht bo'ladi. Kichkinagina trixinnella 10 mingta-gacha lichinka tug'sa, ankilostoma 4-5 yillik hayoti davomida 25-30 mln. ta tuxum qo'yadi. Odam askaridasi bir kecha-kunduzda 250 ming, 5-6 oylik hayoti davomida esa 50-60 mln. dona tuxum qo'yadi. Serpushtlilik tasmaimon chuvalchaglarda ham kuchli rivojlangan. Masalan, cho'chqa tasmaimon chuvalchangi o'z hayoti davomida 200-300 mln. dona tuxum qo'ysa, shu avlodga kiruvchi qoramol tasmaimon chuvalchangi bir kecha-kunduzda 500 mln., bir yilda 440 mln., 10-15 yillik hayoti davomida esa 10 mlrd. 700 mln. dona tuxum qo'yadi⁹. Ankilostomalar bir sutkada 25000, fasciolalar 48000 ta tuxum qo'yadi. Ba'zida oddiy termik ishlovni yetarli emasligi parazitlar kasalliklar tarqalishiga sabab bo'ladi (opistorxoz, difillobotrioz va boshqalar).

Parazitlar juda ko'p miqdorda tuxum qo'ysada, bu tuxumlarning ming ba'zan milliondan bir ulushidagina yangi avlod yetiladi.

Hozirgi vaqtda yer yuzida 2 mln. dan ortiq tur hayvonlar mavjud bo'lsa, shularning 6 % ini parazitlar tashkil qiladi, ya'ni bir hujayrali hayvonlarning 6000 dan ortiq turi, so'rg'ichlilar sinfining 5000 ga yaqin turi, monogeniylarning 2500 turi, tasmaimon chuvalchanglar sinfining 3000 ga yaqin turi, tikanboshlilar sinfining 500 ta turi, nematodalar sinfining 3000 dan ortiq turi va bo'g'imoyoqlilar tipiga kiruvchi hayvonlarning bir qancha o'n minglab turlari parazitlar hisoblanadi. Shuningdek, hayvonot dunyosi sistemikasida parazitlar halqali chuvalchanglar, moolyuskalar va hatto umurtqali hayvonlardan – to'garak og'izlilar sinfi vakillari orasida ham uchraydi.

Xulosa. Parazit hayvonlarning organizmga yuqish sabablari, uni davolash profilaktikasi va bu mavzuga oid olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va ma'lumotlar asosida quyidagicha xulosalarni keltirish mumkin¹⁰:

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va ma'lumotlar: Olimlar, parazit hayvonlarning organizmga yuqish sabablari va davolash profilaktikasi bo'yicha muhim ma'lumotlar va tadqiqotlar yuritishadi. Ular yangi antiparazit preparatlar, davolash usullari, profilaktik tadbirlar va parazit davolash sohasidagi yangiliklar haqida ma'lumotlar to'plashadi. Bu ma'lumotlar parazitlarning hayvonlarga ta'siri, ularning hayvon organizmida o'rnini o'rganish, davolash usullari va profilaktikasi sohasidagi yangiliklarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, parazit hayvonlarning organizmga yuqish sabablari, uni davolash profilaktikasi mavzusi olimlar tomonidan keng qamrovli o'rganilgan va bu sohada muhim tadqiqotlar va ma'lumotlar mavjud. Bu bilan birga, hayvonlarning sog'ligini saqlash, parazit infeksiyalarini oldini olish va hayvonlararo salomatlikni ta'minlashdagi takliflar va usullar ham rivojlanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Georgi, J.R., & Maizels, R.M. (2017). Exploring Parasite Genomes: Parasitology Meets Genomics. Cambridge University Press.
2. Bowman, D.D., & Georgi, J.R. (2013). Georgis' Parasitology for Veterinarians. Elsevier Health Sciences.

⁹ Xamidov J. va bosh. Tibbiy biologiya va irsiyatdan qo'llanma. Tibbiyot parazitologiyasi. T., 2022y

¹⁰ Ergashev E., SHopulatov J.SH. Parazitologiya. Qishloq xo'jalik texnikumlari uchun darslik. T., 2020y



3. Roberts, L.S., Janovy Jr, J., Schmidt, G.D., & Schmidt, G.D. (2012). Foundations of Parasitology. McGraw-Hill Education.
4. Taylor, M.A., Coop, R.L., & Wall, R.L. (2015). Veterinary Parasitology. John Wiley & Sons.
5. Craig, P., Pawlowski, Z., & Rougemont, A. (2013). Parasitic Diseases of Wild Mammals. John Wiley & Sons.
6. Soulsby, E.J.L. (2012). Helminths, Arthropods and Protozoa of Domesticated Animals. Elsevier Health Sciences.
7. Molyneux, D.H., & Beverley, S.M. (2018). Control of Human Parasitic Diseases: Volume 96. Academic Press.
8. Anderson, R.C., Chabaud, A.G., & Willmott, S. (2009). Keys to the Nematode Parasites of Vertebrates: Archival Volume. CABI.
9. Bowman, D.D. (2014). Georgis' Parasitology for Veterinarians-E-Book. Elsevier Health Sciences.
10. Ergashev E., SHopulatov J.SH. Parazitologiya. Qishloq xo'jalik texnikumlari uchun darslik. T., 2020y.
11. Xamidov J. va bosh. Tibbiy biologiya va irsiyatdan qo'llanma. Tibbiyot parazitologiyasi. T., 2022y.
12. www.arxiv.uz